



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ROMAN TARJIMASIDA METONIMIYANING QO'LLANILISHI VA TARJIMADA AKS ETISHI (H.LAMBNING "BOBUR-YO'LBARS" ROMANI MISOLIDA)

Ibragimov Shexrozbek To'liqinjon o'g'li,

Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

E-mail: ibragimovshexrozbek@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15184016>

***Annotatsiya.** Metonimiya badiiy adabiyotda ko'p qo'llanadigan badiiy san'atlardan biri. Zero, o'zbek adabiyotini metonimiyasiz tasavvur qilish imkonsiz. So'nggi yillarda qilinayotgan tadqiqot ishlarda metonimiya nafaqat leksika, semantika, stilistika, balki tarjimashunoslik yuzasidan o'rganilmoqda. Xususan. Ushbu maqolada H.Lambning "Bobur-Yo'lbars" romani asliyatida aniqlangan metonimiyalar o'zbekcha tarjima bilan o'zaro qiyoslangan. Qiyos avvalida g'arb tilshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan metonimik tasnifiy tahlil berilgan.*

***Kalit so'zlar.** metonimiya, tasnif, roman, stilistika, ritorika, konseptual.*

Badiiy tasvir vositalari ichida metonimiyaning alohida o'rni bor. Rossiyalik olim N.V.Runova ingliz tili manbalarda otlardagi yangi metonimik ma'nolarini hosil bo'lishining kognitiv asoslariga bag'ishlangan nomzodlik ishida metonimiya tilshunoslikning turli sohalarda har tomonlama o'rganilganiga urg'u beradi. Uning qarashlari bo'yicha metonimiya stilistika, lingvistik semantika, leksikografiya, psixolingvistika va mantiqiy semantika kabi sohalarda inson ongining eng asosiy xususiyatlarida biri sifatida tadqiq qilingan¹. Xususan, metonimiyani stilistik jihatdan o'rgangan olimlarning ichida I.R.Galperin, B.V.Tomashevskiy, V.V.Vinogradov, I.V.Arnold, Y.V.Anashkina, Y.M.Skrebnev, G.N.Chirsheva, R.Yakobson kabi olimlarni alohida ta'kidlash joiz.

Ingliz tili stilistikasi bo'yicha chuqur tadqiqot olib borgan olim I.R.Galperin "metonimiya lug'at va kontekst ma'no orasidagi boshqa turdagi munosabatga nisbatan ifodalanishi"² keltirib o'tgan. Uning tarifi davomida "bu munosabat tanishtiruv uchun emas, balki ma'nolar ifodalagan ikki tushunchani bog'lovchi qandaydir assotsiatsiyaga tayangan munosabatga asoslanadi"³ deyiladi. Bu ta'rif lingvistik metonimiya uchun xos bo'lib, ikki narsa orasidagi ichki, tushunchaviy bog'liqlikni anglatmoqda. I.R.Galperin ham boshqa bir necha olimlar singari metonimiya uchun xos munosabatlarni bir necha turlarga bo'lib chiqadi. Bunday yondoshuvni J.Lakoff va M.Jonson tomonidan bitilgan ilmiy risolada ham

¹ Рунова Н.В. Когнитивные основы образования новых метонимических значений существительных (на материале английского языка). Кандидата филологических наук. Автореферат – Москва, 2007. 6-7 с.

² Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. Учебник. – 3-е изд. – Москва, 1981. 144 с.

³ Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. Москва, 1981. 144 с.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

uchratamiz⁴. Bunday munosabatlar metonimiyaning semantik tasnifi uchun asos bo'la oladi. Bu haqida qisman birinchi bobda to'xtalib o'tilgan.

Avvallo, g'arb tilshunosligida metonimiya tasnifi bilan shug'ullangan bir necha fikrlarni keltirib o'tsak. Zero, metonimiya tasnifiga g'arbona yondoshuvlarning bazilari o'zbek tadqiqotchilari uchun ham yangilikdir. G'arbda metonimiya, metaforadek, turlarga bo'lib tasniflab o'rganish amaliyoti yetakchilik qiladi. Metonimiyaning semantik tasnifi borasidagi ba'zi fikrlarni birinchi bobda ham qisman keltirib o'tilgan. Bu semantik tasnif "Bobur-Yo'lbars" romani asliyatida mavjud metonimiyalardan misollar bilan dalillangan edi.

B.Varren metonimiyani tilshunoslikning ajralmas sohalaridan kognitologiya, pragmatika va semantika doirasida chuqur tahlilga tortadi. Uning qarashlariga ko'ra, ingliz tilida metonimiyani quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Sintaktik tasnif:

- 1.1. ega;
- 1.2. kesim
- 1.3. to'ldiruvchi;
- 1.4. aniqlovchi (sifat bilan);
- 1.5. predlogli aniqlovchi.

2) Konseptual tasnif:

- 2.1. Ritorik tasnif;
- 2.2. Semantik tasnif.⁵

B.Varren ham metonimiyani lingvokognitiv tomondan tadqiq qilganini hisobga olsak, tasnifning ko'proq qismi konseptual tasnifga ajratilgan. B.Varrenning metonimiya borasidagi fikrlar R.Luo, P.Koch, S.Shenli, L.Arata, Ch.Denroj, X.Fu kabi olimlarning tadqiqot ishlarida ham uchratishimiz mumkin. Xususan, L.Arata qadimgi gretsiyalik allomalar tomonidan yozilgan ilmiy asarlarda metonimiya uchun berilgan ta'riflarni tahlil qilish bilan birgalikda, Gomer asarlaridagi mavjud metonimik birliklarni beshta turli semantik guruhlariga ajaratib tahlil qiladi. Boshqa olimlar ham metonimik tasnif uchun qo'shimcha ma'lumotlar kiritib o'tishganki, ular asnosida biz yuqorida keltirgan, asosan amalda qo'llaniladigan ikki turli tasnif bugungi kunda ishlatilib kelinayotgan yondoshuvdir.

Avval sintaktik tasnifni "Bobur-Yo'lbars" asliyatidagi metonimiyalarga, keyinchalik bu amaliyotni konseptual metonimiyaning faqatgina ritorik tasnifiga ham

⁴ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By* – The University of Chicago Press, 1980. p. 36.

⁵ Warren, B. *Referential metonymy*. – Stockholm: Almqvist & Wiksell International, 2006. 21-74 p.



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

qo'llasak. Semantik, bazi olimlar tomonidan konseptual deyilgan tasnifni birinchi bobda berilganligi uchun uni jadval shaklda be yerda yana takror berishga hojat yo'q.

Metonimiyaning sintaktik tasnifi

1. jadval

| | | |
|-------------------------------------|---|--|
| Ega | <i>The expert Skinner had served Yunus Khan as basin bearer before entering the service of Omar Shaikh. (a person) (H.L. 1961; 27)</i> | <i>If a royal eagle, he told Babur, does not fly over you, a black crow will pick your bones. (a person) (H.L. 1961; 27)</i> |
| Kesim | <i>So Babur claimed. Haidar says Khanzada was given to the Uzbek. (whole society) (H.L. 1961; 73)</i> | <i>No more than a thousand men remained at his side in Samarkand. Kasim pointed out the truth that they had no available force to send to Andijan. (soldiers) (H.L. 1961; 43)</i> |
| To'ldiruvc hi | <i>His father could recite Rumi wonderfully well when warmed with beer, but he wept when he tried to explain the mysteries. (Rumi's works) (H.L. 1961; 26)</i> | <i>The coming of spring loosened the vise of cold on the hillsides. (the winter) (H.L. 1961; 77)</i> |
| Aniqlovchi (sifat bilan) | <i>The wind raging all the time was not less than the Hai-dervish wind... (the name of the wind) (H.L. 1961; 77)</i> | <i>Babur was careful to welcome wholeheartedly the lords of Samarkand who made submission to him. (special people) (H.L. 1961; 42)</i> |
| Predlogli aniqlovchi | <i>I myself set out against Samarkand with the armed men who were with me. (against people) (H.L. 1961; 58)</i> | <i>Because Babur had a quick curiosity, he stored up amazing matters in his memory. (mind and mental capacity) (H.L. 1961; 25)</i> |

Jadvalga e'tibor qaratsak, ingliz tilida metonimiyaning gap tarkibi qanday bo'lak vazifasida kelishiga qarab guruhlariga ajratib chiqilganini ko'ramiz. Metonimiyaning o'zida jam qilgan so'z va so'z birikmalari alohida ranglar bilan ifodalangan. Ega gap bo'lagi tarkibida kelgan metonimiyaga tanlangan misollarda metonimiya uning tarkibida berilgan. "The Skinner", "black eagle" va "black crow" so'z birikmalari parchada ega sifatida kelgan. Boshqa sintaktik birliklar uchun olingan jumalarda ham ingliz tilida kelishi mumkin bo'lgan bo'laklar aniqlangan.

Metonimiyaning ritorik kuchi B.Varren ta'kidlaganidek "tabiiy ravishda, asosan, aniq belgining tabiatiga bog'liq"⁶. Bu tomondan metonimiya ifodalangan birlikda metafora ham mavjud bo'ladi. "Bobur-Yo'lbars" asliyatida ritorik tasnif qilish mumkin bo'lgan metonimiyalar quyidagi jadvalda keltirildi.

⁶ Warren, B. *Referential metonymy*. – Stockholm: Almqvist & Wiksell International, 2006. 37 p.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Metonimiyaning ritorik tasnifi

2. jadval

| H.Lamb "Bobur-Yo'lbars" | Tahlil |
|--|--|
| <i>Babur put aside his writing about the countryside, and added: "Kabul was a land to be governed by the sword, not the pen"</i> | Ushbu jumladagi alohida olingan so'zlar o'zining ifodali ta'siriga ega. "The sword" so'zi qurolni qo'lga tutgan shaxs nazarda tutilsa, "the pen" so'zi bilan yozuvchi, shoir va olimlar tag ma'no sifatida qabul qilinadi. Muallif qalam bilan emas qilich bilan boshqarish ma'nosida Qobul shahrini podshohi shafqatsiz, faqatgina qon bilan davlat ustida turishi nazarda tutilgan. |
| Babur soon discovered that his valley consisted of two different kingdoms: the lower villages along the streams and the wild uplands . (H.L. 1961; 23) | Jumladagi metonimiya uch xil ko'rinishda ritorik ta'rif berish o'rinli ko'rinadi. Birinchisi alohida olingan so'zlar shunchaki joy nomi bilan emas, u yerda yashayotgan jamiyat, millat va insonlarni nazarda tutilgan. Ikkinchidan, ikki antonomik qiyos "lower streams" va "wild upland" ham metonimik tarafdin tahlil qilish mumkin. So'nggi tomondan, parchada Boburning mushohadalari "the lower villages along the streams and the wild uplands"ni ochiq-oydin ifodalash o'rniga yanada ixcham va ta'sirchan qilib berilgan. |
| Winter cold usually closed the higher passes . (H.L. 1961; 23) | Qishda yog'gan qalin qor savdogarlar yuradigan yo'lni to'sib qo'yganligiga berilgan ta'rifda qo'llangan "higher passes" so'z birikmasidagi metonimiyani ham retorik tasnifi mavjud. Xususan, jumladagi metonimik birlik yuqorida alohida ta'kidlangandek, tog'ning yo'li bilan birgalikda sayohat va savdo-sotiq uchun mo'ljallangan yo'lak vazifasini ham bajarib berishi tag ma'no sifatida qabul qilish mumkin. |

Yuqorida g'arb tilshunosligida metonimiyaning xarakteristikasiga berilgan tasniflarga qisman to'xtalib o'tildi. Bu nazariy ma'lumot sifatida mutolaa qilingan manbalarning bir qismi xolos. Manbalardan keltirilgan ishonchli fikrlardan metonimiyani "Babur the tiger" romanida berilishi va uning o'zbekcha tarjimasida ifodalanishi borasida foydalanish tadqiqot ishida qo'yilgan vazifalarni bajarilishini osonlashtiradi va mutarjimning tarjima jarayonida qo'llagan tarjima metodlarini dalillashga ham xizmat qiladi.



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рунова Н.В. Когнитивные основы образования новых метонимических значений существительных (на материале английского языка). Кандидата филологических наук. Автореферат – Москва, 2007. 6-7 с.
2. Warren, B. *Referential metonymy*. – Stockholm: Almqvist & Wiksell International, 2006. 37 p.
3. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. Москва, 1981. 144 с.
4. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By* – The University of Chicago Press, 1980. p. 36.